



Alternativa Film loyihasi birinchi xalqaro Alternativa Film Award mukofotining jyurilar hay'atini e'lon qiladi

Jyurilar hay'atiga filippinlik kinorejissyor, Kann kinofestivalining sovrindori **Briante Mendoza** boshchilik qiladi. Unga **Gita Saedi Kili**, **Udaya Prasanna Vitanage**, **Rintu Tomas**, shuningdek, **Bayan Alaguzova**, **Vyacheslav Abramov**, **Ruslan Akun** va **Anna Chubinidze** hamkorlik qilishadi.

Alternativa Film Awards - keng auditoriyani jalb qilgan holda, ijobiy ijtimoiy o'zgarishlar sababchisi bo'lish imkoniga ega bo'lgan filmlarni qo'llab-quvvatlaydigan yangi kinopremiyadir. Bu loyihalar muhim ijtimoiy va madaniy mavzularni ko'tarib, odamlar va jamiyatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan asarlardir. Alternativa Film Awards filmlarning ham badiiy jihatlarini, ham ularning ijtimoiy ta'sirini (impaktini) baholab, kino mukofotlari va impakt mukofotlarini birlashtiradi. Birinchi Alternativa Film Awards marosimi 2 dekabr kuni Almata shahrida bo'lib o'tadi.

Briante Mendoza - 2009-yil Kann kinofestivalida "Kinatay" filmi uchun eng yaxshi rejissyor mukofotini qo'lga kiritgan birinchi filippinlik rejissyor va prodyuser, shuningdek, frantsuz ordeni bilan taqdirlangan yagona filippinlikdir. Mendozaning "Mindanao" (2019), "Mama Rosa" (2016), "Tuzoq" (2015), "Qorin" (2012) va "Lola" (2009) filmlari ham Berlin va Venetsiyadagi kinofestivallarda qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritgan. Filippinlik yosh kinoijodkorlarni faol qo'llab-quvvatlab, Filippinda kino ta'limi darajasini oshirishni izchil targ'ib qilib kelayotgan Mendoza, o'z vatanida kino fondi va kinofestivaliga asos solgan, shuningdek, muntazam ravishda rejissyorlik bo'yicha mahorat darslarini o'tkazib turadi.

"Jyurilar hay'ati tajriba va geografik jihatdan xilma-xilligidan juda mamnunmiz. Biz odamlarni bir nechta mezonlarga asoslanib taklif qilgandik. Birinchidan, mukofotning asosiy printsipiga rioya qilish biz uchun muhim edi: filmning badiiy fazilatlarini va impaktini baholashni birlashtirish, shuning uchun jyurilar hay'ati tarkibiga faoliyati aktivistik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan odamlar kiradi. Bular - ayollar huquqlarini himoya qiluvchi **Bayan Alaguzova** va **FilmAid** tashkilotidan **Gita Saedi Kili**, **Vlast.kz** asoschisi **Vyacheslav Abramov**lardir. Ikkinchidan, filmlarning janrdagi fazilatlarini baholay oladigan buyuk, hurmatli rejissyorlarni, masalan, dokumentalist **Rintu Tomas** va animatsiya rejissyori **Anna Chubinidze**ni hakamlar hay'atiga taklif qilib, ularni bizning mukofotimizda ishtirok etish uchun eng ko'p arizalar tushgan mintaqaga, Markaziy Osiyodagi hamkasblarining asarlari bilan tanishtirish bir xil darajada muhim edi. Umid qilamizki, kino va impakt sohasi mutaxassisleri o'rtasidagi muloqot qiziqarli natijalar ko'rsatib, yaxshi ma'noda hayratda qoldiradi», - deya, Alternativa Film Awards rahbari, **Alyona Bocharova** hakamlar hay'atini izohlab berdi.

Premiyaning jyurilar hay'ati tarkibiga **FilmAid** nodavlat gumanitar tashkiloti direktori **Gita Saedi Kili** ham kirdi, u qochqinlar va boshqa muhtoj hamjamiyatlarga ta'lim va yordam, shu qatori, psixologik yordam ko'rsatish uchun filmlardan foydalanadi. **Gita** - dunyoning turli burchaklaridan kelgan muhojirlar va qochqinlarning AQSHdagi hayotining birinchi yillari haqida hikoya qiluvchi mashhur "Yangi amerikaliklar" serialining prodyuseri. Bundan tashqari, **Shri-Lanka** kinosining kashshoflaridan sanalgan shri-lankalik rejissyor **Udaya Prasanna Vitanage** jyurilar hay'ati a'zosi bo'ldi. U sakkizta badiiy filmga rejissyorlik qilgan, jumladan, "To'lin oyda o'lim" (1997), "Avgust quyoshi" (2003), "Osmondagi gullar" (2008) va "Sen bilan, sensiz" (2012) milliy va xalqaro kinofestivallarda mukofotlarga sazovor bo'lgan. **Vitanage** **Shri-Lankada** tsenzuraga qarshi muntazam kurash olib boradi, kino ijodkorlikdan dars beradi va o'z vatanida kino ijodkorlari va kino ixlosmandlari uchun mahorat darslar ham o'tkazadi.

Jyurilar hay'atining yana bir a'zosi - hind hujjatli film rejissyori **Rintu Tomas** bo'lib, u impakt kino sohasida muvaffaqiyat qozongan. Uning debyuti "Yonayotgan matn" (2021) "Oskar" mukofotiga nomzod bo'lgan birinchi hind hujjatli filmi bo'lib, **Sandens** kinofestivalida ikkita mukofotni qo'lga kiritgan.

Premiyaning jyurilar hay'ati tarkibiga, talabalik davridan beri Qirg'izistonning ijtimoiy muammolariga jalb etilgan, rejissyor, prodyuser va ssenarist **Ruslan Akun** (“Salom, Nyu-York”, “Bishkek, men seni sevaman!”, “Aqirki Sabak”) ham kirdi; Berlin kinofestivalining “Panorama” dasturida, tomoshabinlar mukofotiga sazovor bo'lgan, oiladagi zo'ravonliklar haqidagi “Baxt” dramasi prodyuseri qozog'istonlik **Bayan Alaguzova**.

Nihoyat, mukofotning jyurilar hay'atiga jurnalist, Qozog'istonning “Vlast.kz” mustaqil internet portali asoschisi, ko'p yillardan buyon mamlakatda mustaqil jurnalistika va fuqarolik jamiyati rivojida ishtirok etgan, **Vyacheslav Abramov** ham qo'shildi. Gruziyalik animatsiya rejissyori va illyustratori **Anna Chubinidze**. Uning filmlari (“Cho'ntaki odam”, “Frantsening oshxonasi”) dunyodagi eng katta animatsiya festivallarida, jumladan Annesi va Londonda qatnashgan va g'olib bo'lgan.

Liza Surganova, Alternativa Film Awards rahbari: “Biz boshidanoq loyihamizni butunjahon deb hisoblagan edik va, shu bois, jyurilar hay'ati haqiqatdan, xalqaro bo'lib chiqqanidan va uning tarkibiga o'z sohasining kuchli mutaxassislari kiritilganidan juda xursandmiz. Ularning har biri o'ziga xos ish tajribasiga ega, ularning faoliyati jiddiy jamoatchilik muhokamalariga sabab bo'lgan, ular o'z mintaqalarining muammolari va xususiyatlari haqida gapirayotganlarning ovozini yanada balandroq va ravshanroq qilish uchun izchil harakat qildilar. Bizga 26 mamlakatdan 350 dan ortiq arizalar kelib tushgan va ushbu filmlarni tanlov komissiyasi, so'ngra jyurilar hay'ati baholab berishini intiqlik bilan kutamiz”.

2023 yilgi umumiy mukofot jamg'armasi 100 000 dollarni tashkil etadi va besh nominatsiya bo'yicha taqsimlanadi: **Future Voice** (kino sanoati va jamiyatdagi o'zgarishlarga katta hissa qo'sha oladigan rejissyor), **Spotlight** (muhim mavzuni yorituvchi film) yoki ilgari keng omma e'tiboridan chetda qolgan asar), **Alter** (muhim ijtimoiy muammolar haqida va ijtimoiy o'zgarishlarga kuchli turtki bo'lgan film), **Nativa** (milliy yoki madaniy o'ziga xoslik mavzulariga bag'ishlangan film) va **Short Awards** (Markaziy Osiyoning fokus mintaqasidan qisqa metrajli film). Bundan tashqari, tadbirda ishlab chiqarilgan hududdan tashqarida jamiyat tomonidan alohida e'tirofga sazovor bo'lgan filmga, maxsus **Resonance** mukofoti (pul mukofotisiz) topshiriladi.

Alternativa Film Awards ierarxiya tuzmaydi - barcha mukofotlar teng va bir xil pul mukofoti - 20 000 AQSh dollarni tashkil etadi. Mukofotga to'liq metrajli badiiy filmlar, hujjatli filmlar, animatsiyalar va gibrid (janrlar chorrahasida) filmlar taqdim etilishi mumkin. Bu yil istalgan janrdagi qisqa metrajli filmlar faqat Markaziy Osiyo davlatlaridan qabul qilinadi. Filmlar 2022 yoki 2023 yilda yakunlangan bo'lishi kerak.

Alternativa Film Awards 2023-yilda Markaziy Osiyoda inDrive global texnologiya kompaniyasi tomonidan boshlangan Alternativa film xalqaro nodavlat loyahasining bir qismidir. Loyiha rivojlanayotgan kino sanoatining kinoijodkorlarini qo'llab-quvvatlash va ularni targ'ib qilish uchun yaratilgan bo'lib, uning vazifasi - dunyo haqidagi tushunchamizni kengaytira oladigan va uni yaxshi tomonga o'zgartirishga yordam beradigan ijodkorlarni xalqaro miqyosga ko'rintirish, ularni professional o'sishi uchun resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, mahalliy kino sanoati va hamjamiyatlarning rivojlanishiga kuchli turtki berishdir. Alternativa Film loyihasi ko'chmanchi loyihadir, mamlakatdan mamlakatga ko'chib o'tib, geografiyasini asta-sekin kengaytiradi. 2023 yildagi asosiy tashabbuslar Almata va Bishkekda Alternativa Film Laboratoriyalari doirasidagi uchta ta'lim dasturi, shuningdek, muhim hodisa - 2 dekabr kuni Almata shahrida bo'lib o'tadigan, xalqaro Alternativa Film Awards birinchi marosimi bo'ladi.

Media uchun kontaktlar

Anna Vasilyeva

anna.vasilyeva@alternativa.film